ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 81.42 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3907

NAZAR ESHONQULNING “BEPOYON OSMON” HIKOYASIDA MUALLIF USLUBIGA LINGVOPOETIK JIHATDAN YONDASHUV

D.B.Safarova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

D.B.Safarova Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 15.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 29.03.2026
Qabul qilindi: 13.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv amalga oshiriladi. Asar bola nuqtayi nazaridan rivoya qilinishi, ayol (Oytoldi) obrazining bepushtlik fojeasi fonida ruhiy tahlil orqali ochilishi, dialog va ichki monologlarning polifonik tizimi, sintaktik kontrastlar hamda metaforik-ramziy qatlam asosiy tahlil obyekti sifatida qaraladi. Tadqiqotda leksik, sintaktik, kompozitsion va metaforik tahlil usullari qo‘llanib, “Bepoyon osmon” obrazi atrofida shakllangan ma’no qatlamlari, jamiyatdagi gender stereotiplari va axloqiy pozitsiyalar nutq darajasida qanday ifodalangani ko‘rsatib beriladi. Maqola xulosalariga ko‘ra, “Bepoyon osmon” hikoyasi Nazar Eshonqul nasriga xos ruhiy tahlil, ichki monolog, mifopoetik obrazlar va polifonik nutq tizimini mujassam etgan badiiy matn sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, muallif uslubi, ayol obrazi, bola hikoyachi, ruhiy tahlil, dialog va polifoniya, metafora va ramz, sintaktik kontrast, gender stereotiplari, zamonaviy o‘zbek nasri.

Лингвопоэтический подход к авторскому стилю в рассказе Назара Эшонкула “Бепоён осмон” («Беспредельное небо»)

Аннотация. В статье осуществляется лингвопоэтический анализ авторского стиля в рассказе Назара Эшонкула “Бепоён осмон” («Беспредельное небо»). В качестве основных объектов исследования рассматриваются повествование от лица ребёнка, раскрытие образа женщины (Ойтолди) через психологический анализ на фоне трагедии бесплодия, полифоническая система диалогов и внутреннего монолога, синтаксические контрасты, а также метафорико-символический пласт произведения. В работе применяются лексический, синтаксический, композиционный и метафорический методы анализа, что позволяет показать, каким образом смысловые слои, сформированные вокруг образа “Бепоён осмон” («Беспредельное небо»), гендерные стереотипы общества и нравственные позиции выражаются на уровне речи. В выводах отмечается, что рассказ “Бепоён осмон” («Беспредельное небо») представляет собой художественный текст, воплощающий характерные черты прозы Назара Эшонкула: психологизм, внутренний монолог, мифопоэтическую образность и полифоническую систему речи.

Ключевые слова: лингвопоэтика, авторский стиль, образ женщины, ребёнок-рассказчик, психологический анализ, диалог и полифония, метафора и символ, синтаксический контраст, гендерные стереотипы, современная узбекская проза.

A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”)

Abstract. This article presents a linguopoetic analysis of

the authorial style in Nazar Eshonqul's short story "Bepoyon osmon" (The Boundless Sky"). The narrative perspective of a child, the portrayal of the female character (Oytoldi) revealed through psychological analysis against the background of the tragedy of infertility, the polyphonic system of dialogue and internal monologue, syntactic contrasts, as well as the metaphorical-symbolic layer constitute the main objects of analysis. The study applies lexical, syntactic, compositional, and metaphorical methods of analysis to demonstrate how the semantic layers formed around the image of the "Bepoyon osmon", gender stereotypes in society, and moral positions are expressed at the level of discourse. The findings suggest that "Bepoyon osmon" ("The Boundless Sky") exemplifies the characteristic features of Nazar Eshonqul's prose, including psychological analysis, internal monologue, mythopoetic imagery, and a polyphonic speech system.

Keywords: linguopoetics, authorial style, female image, child narrator, psychological analysis, dialogue and polyphony, metaphor and symbol, syntactic contrast, gender stereotypes, modern Uzbek prose.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda o‘zbek nasrida inson ruhiyati, ichki monolog va psixologik tahlilga tayanadigan modern yo‘nalish kuchaydi va bu jarayonda Nazar Eshonqul ijodi alohida o‘rin egalladi. Uning hikoyalari, xususan, "Bepoyon osmon" asari zamonaviy o‘zbek nasrida ayol taqdiri, bepushtlik fojeasi va jamiyatning axloqiy stereotiplari lingvopoetik darajada ifoda etilishi bilan e’tiborga loyiqdir. Lingvopoetika badiiy matnni "nima deyilgani"dan ko‘ra "qanday aytilgani", til birliklarining estetik vazifasi nuqtayi nazaridan o‘rganishi bilan ahamiyatli bo‘lib, aynan shunday yondashuv Nazar Eshonqul nasriga xos uslubiy xususiyatlarni ochishga imkon beradi.[1]

"Bepoyon osmon" hikoyasida voqealar bola nuqtai nazaridan hikoya qilinadi, ayol (Oytoldi) obrazi esa ruhiy tahlil, ichki sukut va ramziy detallar orqali chiziladi[2]. Bu jarayonda muallif tilining sodda, ammo ma’nodosh qatlamlarga boy bo‘lishi, dialog va ichki monologlarning o‘zaro kesishishi, sintaktik kontrastlar va metaforik obrazlar tizimi hikoya poetik qurilmasining asosini tashkil etadi. Mazkur tadqiqot Nazar Eshonqulning "Bepoyon osmon" hikoyasida muallif uslubini lingvopoetik jihatdan yoritish, ayol obrazi, bola hikoyachining nutqi, metafora va ramzlar, sintaksis va nutq ritmi, shuningdek, polifonik uslub xususiyatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi[3]. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Nazar Eshonqul ijodi bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar yozilgan bo‘lsa-da, aniq bir hikoya misolida muallif uslubini kompleks lingvopoetik tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlar kam uchraydi. "Bepoyon osmon" hikoyasi ayol obrazining badiiy-psixologik talqini, jamiyatdagi gender stereotiplari va ruhiy jarayonlarning til vositasida ifodalanishi nuqtayi nazaridan ham o‘zbek adabiyotshunosligi, ham tilshunosligida o‘rganilishi zarur bo‘lgan matn sifatida namoyon bo‘ladi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot lingvopoetik tahlil metodiga asoslanadi, ya’ni hikoya matni til birliklarining badiiy-estetik vazifasi nuqtai nazaridan qatlamma-qatlam o‘rganildi. Bunda quyidagi yondashuvlar qo‘llandi:

1. Leksik tahlil – ayol obrazi, bola hikoyachi nutqi, jamiyat stereotiplarini ifodalovchi so‘zlar va iboralar ajratilib, ularning konnotativ ma’nosi va emotsional bo‘yoqdorligi tahlil qilindi[5].
2. Sintaktik tahlil – hikoyadagi uzun va qisqa gaplar, pauzalar, takrorlar, kesik jumlalar, parallel qurilmalar aniqlanib, ularning ritmik va stilistik vazifasi ko‘rsatildi[6].
3. Kompozitsion-pragmatik tahlil – rivoya shakli, "men" pozitsiyasi, bola nigohi, ichki monolog va dialoglarning o‘zaro munosabati, nutq subyektlari almashinuvi o‘rganildi[7].
4. Metafora va ramzlar tahlili – "osmon", "bepoyonlik", bepushtlik, xizmat, sukut, marosimiy detallar, diniy leksika va boshqa ramzlarning semantik tarmog‘i ko‘rib chiqildi[8].
5. Intertekstuallik va kontekstual yondashuv – Nazar Eshonqulning boshqa modern hikoyalari va o‘zbek nasrida ayol obrazi tasviri bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar bilan qiyosiy kuzatishlar olib borildi[9].

Metodologik asos sifatida matn tilshunosligi, lingvopoetika, nasr poetikasi bo‘yicha o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida shakllangan nazariy qarashlarga tayangan holda ishlash ko‘zda tutilgan. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi ayol obrazining lingvopoetik talqiniga bag‘ishlangan

maqolalar, Nazar Eshonqul hikoyalarida obraz masalasi va muallif uslubi haqida so‘z yuritgan tadqiqotchilar qarashlari ham ishning nazariy tayanchini tashkil etdi.

Muhokama va natijalar:

1. Rivoya shakli va bola nuqtayi nazari. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Bepoyon osmon” hikoyasida rivoya bola tilidan, “men” pozitsiyasida olib borilishi muallif uslubini keskin individuallashtiradi. Bola hikoyachi voqealarni kattalar dunyosiga nisbatan sodda, bevosita ko‘rish, eshitish va his qilish darajasida tasvirlaydi, bu esa matnga samimiy, lirizmga moyil, ammo ich-ichidan alamli ohang bag‘ishlaydi. Bola nuqtayi nazari orqali Oytoldi va otaning taqdiri, bepushtlik fojeasi va qarindoshlarning munosabati ko‘proq kuzatuvchi nigoh, hayrat va ichki tushunmaslik bilan yoritiladi, natijada muallif axloqiy hukmni bevosita bermaydi, balki uni o‘quvchi tafakkuriga havola qiladi. Bola tilidan hikoya qilish Eshonqul nasriga xos ichki samimiyat, o‘z-o‘zini tinglash, ruhiy monologga moyillikni kuchaytiradi; bu jihat yozuvchining boshqa hikoyalarida ham qayd etilgan uslubiy belgilardan biri sifatida tasdiqlandi. Lingvopoetik jihatdan qaralganda, bir nutq subyekti (bola) orqali bir necha axloqiy pozitsiya (Oytoldi, ota, xola, jamiyat) aks ettirilishi asarning polifonik xususiyatini yuzaga keltiradi[10].

2. Ayol obrazi va ruhiy tahlil vositalari. Natijalar ko‘rsatishicha, hikoya markazida turgan Oytoldi obrazi o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy fidoyi ayol qiyofasini modern ruhiy talqin bilan sintez etadi. U bepushtlik fojeasida erini himoya qilish uchun tibbiy haqiqatni yashiradi, barcha malomatni o‘z zimmasiga oladi va o‘zini “aybga loyiq” sifatida ko‘radi; bularning barchasi uning nutqidagi o‘zini ayblovchi, o‘zini kichraytiruvchi iboralar orqali ifodalanadi. Oytoldining sukuti, tinimsiz xizmat qilishi, qo‘lidan kelgancha hamma yumushni bajarishi, sovuqda ham hovlini yuvishi kabi detallar uning ichki faryodidan ko‘ra ko‘proq “nutqsiz” ruhiy holatni ifodalaydi[11]. Dialoglar tahlili Oytoldi obrazi atrofida qarama-qarshi nutq uslublarini yuzaga keltiradi: bir tomonda uning kamtar, bosiq, muloyim, ko‘proq “kechirim” semasiga ega nutqi tursa, ikkinchi tomonda xola va boshqa qarindoshlarning qo‘pol, malomatga boy, kinoyali iboralari turadi. Bu lingvopoetik kontrast orqali muallif jamiyatdagi gender stereotiplarini ochib beradi: bepushtlik uchun ayolni ayblash, erkak sha’nini asrashni mutlaq qadriyat sifatida ko‘rish, ayolning esa o‘zini qurbon qilishiga tabiiy hol sifatida qarash kabi qarashlar nutq darajasida jonli namoyon bo‘ladi.

3. Dialog, polifoniya va nutq registrlari. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Bepoyon osmon” hikoyasida dialoglar faqat voqeani rivojlantirish emas, balki personaj xarakterini ochish, ijtimoiy-axloqiy qarashlarni ifodalash, ichki mojaroni til darajasiga ko‘chirish vazifasini bajaradi. Bola bilan otaning suhbatlarida farzandni Oytoldi qo‘liga berish, yoki uning yonida bo‘lish qaroridagi ichki ikkilanish, aybdorlik hissi ko‘pincha qisqa, kesik gaplar, pauzali tuzilmalar orqali ifoda topadi. Xola tilidan aytiladigan kinoyali, malomatli iboralar esa nafaqat Oytoldining ruhiy og‘rig‘ini kuchaytiradi, balki “xalq og‘zi”dagi stereotipli qarashlarni ham yoritib beradi. Hikoyada uch turdagi asosiy nutq registri ajralib chiqadi: bola hikoyachining sodda, his-hayajonga to‘la, gapirgandek yozilgan nutqi; Oytoldining kam so‘z, ammo ko‘proq amal bilan “gapiradigan” bosiq uslubi; xola va qarindoshlarning qo‘polroq, maqol va stereotipli ifodalarga boy nutqi. Shu tariqa nutq uslublari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar hikoya polifonik tuzilishini yuzaga keltirib, muallifning axloqiy bahosi yashirin subtekst sifatida o‘quvchiga yetkaziladi.

4. Sintaksis, ritm va ichki monolog. Tahlil natijalariga ko‘ra, Nazar Eshonqul hikoyasining sintaktik qurilishi ham muallif uslubining muhim komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyada uzun, qatlamli gaplar asosan tasviriy parchalarda – qishloq muhiti, kundalik yumushlar, marosimiy holatlar tasvirida qo‘llanib, hayotning davomiyligi, vaqt oqimi, taqdirning “bitilganligi” kayfiyatini uyg‘otadi. Bepushtlik, o‘lim, sirning fosh bo‘lishi kabi dramatik lahzalarda esa qisqa, kesik gaplar, pauzalar ko‘payadi va bu ritmik jihatdan emotsional kuchayish vazifasini bajaradi. Ichki monolog, o‘z-o‘ziga murojaatlar, takrorlar ham muallif uslubining ajralmas qismi sifatida kuzatildi. Bu, ayniqsa, bola hikoyachining ichki savollarida, Oytoldining o‘zini ayblovchi, “hammasi mening aybim” mazmunidagi ichki murojaatlarida yaqqol ko‘rinadi; bunday sintaktik tuzilmalar ruhiy tahlil jarayonini til darajasida aks ettiradi.

5. Metafora, ramz va “bepoyon osmon” obrazi. Natijalar ko‘rsatishicha, hikoya nomidagi “Bepoyon osmon” obrazi butun matnning metaforik-ramziy markaziga aylangan. “Osmon” bir tomondan cheksiz umid, ilohiy adolat va ruhning erkinligi timsoli bo‘lsa, ikkinchi tomondan inson taqdirining oldindan belgilanganligi, yerda kechadigan adolatsizliklarga nisbatan “osmon oldidagi adolat”ni eslatuvchi ramz sifatida talqin qilinadi. Oytoldining umr bo‘yi aybni o‘ziga olishi, faqat tibbiy haqiqat ochilgandan so‘ng “haqiqiy aybdorlik nisbatlari” o‘zgarishi – bularning barchasi osmon yer, bandalik–ilohiylik qarama-qarshiligi kontekstida o‘qilishi mumkin. Hikoyada marosimiy detallar,

diniy leksika, tasbeh, duo, qabriston, xat kabi detallar ham ramziy ma’noda yuklanadi va Oytoldining ruhiy dunyosini kengroq ontologik qatlam bilan bog‘laydi. Nazar Eshonqul nasriga xos bo‘lgan mifopoetik qatlam, xalqona obraz va timsollardan foydalanish, tabiat tasvirini ruhiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish bu hikoyada ham samarali ishlatilgani qayd etildi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Bepoyon osmon” hikoyasi Nazar Eshonqul ijodiga xos umumiy uslubiy xususiyatlarni jamlagan holda, ayni paytda ayol obrazi va bola nuqtayi nazari orqali yangi lingvopoetik imkoniyatlarni ochib beradi. Bola tilidan hikoya qilish, ichki monolog va ruhiy tahlilga tayanish, sintaktik kontrastlar va metaforik ramzlar tizimi yozuvchining modern nasrga xos qidiruvlarini ko‘rsatadi. Bu jihatlar o‘zbek nasrida ayol taqdiri va jamiyat stereotiplarini badiiy-psixologik hamda lingvopoetik darajada yoritishning samarali vositasiga aylangan.

Ayol obrazi – Oytoldi – an’anaviy fidoyi, sabrli, oilani saqlash uchun o‘zini qurbon qiluvchi o‘zbek ayoli modeli bilan bir qatorda, zamonaviy psixologik konfliktga ega shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Uning nutqidagi kamtar, o‘zini ayblovchi, sukutga moyil bo‘lgan iboralar, xizmat va qurbonlikka yo‘g‘rilgan harakatlari, bepushtlik fojeasini “faqat o‘z zimmasiga olish”i jamiyatdagi gender stereotiplarini fosh etadi va shu orqali muallifning tanqidiy-estetik pozitsiyasi subtekst orqali ifodalanadi. Bola nigohi va polifonik dialoglar esa bu jarayonni yanada ishonarli, jonli va emotsional qiladi.

Sintaksis va nutq ritmining o‘zgarib turishi – uzoq tasviriy gaplardan kesik dramatik jumlalarga o‘tish – hikoya musiqiyligini, ichki dramatizmini ta’minlaydi va bu jihat Nazar Eshonqul nasri bo‘yicha avvalgi tadqiqotlarda qayd etilgan uslubiy xususiyatlar bilan hamohangdir. “Bepoyon osmon” obrazi atrofida shakllangan metaforik va ramziy qatlam esa hikoyani faqat maishiy fojea darajasida emas, balki ontologik, axloqiy-falsafiy darajada ham idrok qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud: ish asosan bitta hikoya matnini lingvopoetik tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, muallifning boshqa asarlari bilan keng qamrovli qiyosiy tahlil keyingi izlanishlarni talab qiladi. Kelgusida Nazar Eshonqul nasrida ayol obrazining lingvopoetik modeli, bola hikoyachi fenomeni, mifopoetik obrazlar tizimi, shuningdek, muallif uslubini boshqa zamonaviy o‘zbek yozuvchilari bilan qiyoslash kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Eshonqul N. Bepoyon osmon. – Elektron nashr: Ziyouz.com.URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/nazar-eshonqul-1962/nazar-eshonqul-bepoyon-osmon-hikoya.
2. Xolmatova A. Q. Tilshunoslikda lingvopoetika va lingvopoetik vositalarning o‘rganilishi tarixi. Oriens xalqaro ilmiy jurnali. – 2023. – 3-jild, 7-son. B. 282–284.URL: https://oriens.uz/uz/journal/article/tilshunoslikda-lingvopoetika-va-lingvopoetik-vositalarning-organilishi-tarixi/.
3. O‘zbek adabiyotining kimyogari (Nazar Eshonqul ijodi haqida maqola) Oyina.uz.2025-yil 22-iyun.URL: https://oyina.uz/uz/article/890.
4. Nazar Eshonqul ijodida folklor an’analari. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. 2024. 3-jild, 1-son. B. 245–247.
5. Hozirgi o‘zbek hikoya va qissachiligida modernistik shakl va usullar (Erkin A’zam, X. Do‘stmuhammad, N. Eshonqul va b.) Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali.2022. Onlayn nashr(https://scientific-jl.com/tad/issue/view/425).
6. Asadov T.H. “Matn tilshunosligi” o‘quv qo‘llanma. – BuxDU 29.11.2023-y.(https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12918_2_37FD6F7951BEF207C4343113F662E113BCDC57DE.pdf).
7. Tilshunoslikda lingvopoetika va lingvopoetik vositalarning o‘rganilishi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2022. (file:///C:/Users/User/Downloads/259-262.pdf).
8. Lingvopoetika asoslari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Filologiya nashriyoti, 2020.
9. She’riyatda lingvopoetik vositalarning qo‘llanishi Science and Innovation ilmiy jurnali. 2022. 148-son.
10. Zamonaviy o‘zbek nasrida modernistik tendensiyalar va muallif uslubi American Journal of Pedagogical and Educational Research 2023. (https://americanjournal.org/index.php/ajper/issue/view/186).
11. Ahmedova M. “Nazar Eshonqul ijodida folklor an’analari” Proceeding of International Conference on Modern science and Scientific Studies 19.01.2024. ISSN:2835-3730 Hosted online from Paris, France (file:///C:/Users/User/Downloads/51.pdf).

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296